

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

IBRAGIMOVA NIGORA ISLAMOVNA

**“YURAK/HEART” KONSEPTUAL TUSHUNCHASINING
PAREMIOLOGIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA FAOLLASHUVI**

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Ibragimova Nigora Islomovna

“YURAK/HEART” konseptual tushunchasining paremiologik va frazeologik birliklarda faollashuvi (ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida)..... 3

Ибрагимова Нигора Исломовна

Активизация концептуального понятия «YURAK/HEART» в паремиологических и фразеологических текстах (по материалам английского и узбекского языков)..... 25

Ibragimova Nigora Islomovna

Activation of the concept “YURAK/HEART” in paremiological and phraseological texts (based on English and Uzbek language materials) 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

IBRAGIMOVA NIGORA ISLAMOVNA

**“YURAK/HEART” KONSEPTUAL TUSHUNCHASINING
PAREMIOLOGIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA FAOLLASHUVI**

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2249 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdchi.uz hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarov Shahriyor Safarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jo'rayeva Malohat Muhammadovna
filologiya fanlari doktori, professor

Odilov Bahodir Baxtiyorovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "17" yanvar soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 85A-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61783 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "6" yanvar kuni tarqatildi.
(2025-yil "4" yanvar dagi № 2 raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A. Yaxshiyev


Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

G'.Q. Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent

N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi
o'rinbosari, filologiya fanlari doktori
(DSc), professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida gumanitar fanlarga antroposentrik paradigmaning kiritilishi zamonaviy tilshunoslikning turli sohalarida konseptuallashuv jarayonining faol tadqiqi jarayonini belgiladi. Mazkur yo‘nalishda lisoniy hodisalar inson, uning tafakkuri va dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi konseptlarni insonlar dunyoqarashini ochib beradigan mohiyat sifatida o‘rganish istiqbollari bilan bog‘liq. Shu bilan birga, turli madaniyat vakillarining tafakkuriga tegishli konseptlarni chog‘ishtirish ularning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Konseptlarning shakllanishida etnik guruh qadriyatlarini aks ettiruvchi, madaniy stereotiplarni avloddan-avlodga yetkazadigan paremiologik va frazeologik birliklar alohida o‘rin tutadi. Tilshunoslikda konseptlarni o‘rganish asosan lisoniy birliklar va paremiyalarlar asosida amalga oshiriladi, biroq frazeologik birliklar kabi obrazli vositalar bunday tadqiqot obyektiga aylanish ehtimoli kamroq.

Hozirgi kunda dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida fanning zamonaviy yo‘nalishlari, shu jumladan, kognitologiya, lingvomadaniyatshunoslik, olamning lisoniy, poetik, konseptual manzarasini o‘rganish va madaniyatlararo muloqot doirasida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ma‘lum bir xalqning milliy mentalitetni o‘zida mujassam etish muammolari, olamning lisoniy manzarasini tasvirlashda stereotip tuzilmalarning rolini aniqlash, turli matnlar doirasida konseptual tushunchaning faollashuvini tavsiflashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekiston barcha mamlakatlar bilan madaniy aloqalar uchun har tomonlama ochiq bo‘lgan respublikadir. O‘zbek milliy qadriyatlari, ma‘naviyati, madaniyatini o‘zida mujassam etgan paremiologik va frazeologik matnlarning tadqiqi hamda uning tarjimasini amalga oshirish muammolarini o‘rganish dolzarblashmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonda “xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta‘limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta‘limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish”¹ masalasining kun tartibiga qo‘yilganligi ham zamonaviy tilshunoslik sohasini innovasion tamoyil hamda mezonlar bilan boyitish zaruratini yuzaga keltiradi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida, bir tomondan, xorijiy tadqiqotchilarni qiziqtirayotgan, ikkinchi tomondan, O‘zbekiston uchun amaliy qiziqish uyg‘otayotgan masalalarga e‘tibor qaratish lozim. Gumanitar ta‘limning ustuvor vazifalari qatoriga kognitiv fanlarning so‘nggi yutuqlarini egallagan yangi avlod tarjimonlarini tayyorlash kiradi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 oktyabrdagi PF-5847sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. // Xalq so‘zi, 09.10.2019. № 209 (7439).

Mazkur dissertasiya tadqiqoti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubda oshirish chora tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari tug‘risida”gi qarorlari hamda qator boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Milliy-madaniy konseptual sohaning umumiy va o‘ziga xos muammolari V. fon Gumboldt, E. Sepir, B. Uorf, Dj. Lakoff, M. Minskiy, A. Vejbiskaya, A.A. Potebnya, S.A. Askoldov, V. Vinogradov, D.S. Lixachyov, N.D. Arutyunova, Yu.S. Stepanov, Ye.S. Kubryakova, A.P. Babushkin, I.A. Sternin, V.V. Kolesov, V.I. Karasik, G.G. Slisikin, S.G. Vorkachov, D.F. Kayumova, R.R. Zamaletdinov², shuningdek, mahalliy tadqiqotchilardan Sh.S.

² Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Наука, 1984. – 397 с.; Гумбольдт В. Фон. Язык и философия культуры. – М.: «Прогресс», 1985. – 451 с.; Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – 656 с.; Lakoff G. Categories and cognitive models // Berkeley cognitive science report, №2. – Berkeley: Institute for Human Learning (U. of California), 1984. – P. 275-304; Минский М. Структура для представления знаний // Психология машинного зрения. – М.: Мир, 1978. – С. 249-338; Вежицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1997. – 416 с.; Потеня А.А. Собрание трудов: Мысль и язык. – М.: Лабиринт, 1999. – 269 с.; Аскольдов С.А. Концепт и слово. Русская словесность // От теории словесности к структуре текста: Антология. – М.: Academia, 1997. – С. 267-279; Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М.: Гослитиздат, 1959. – 654 с.; Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Известия РАН. Сер. лит. и яз. 1993. №1. – С. 4-10; Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.; Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. – 824 с.; Кубрякова Е.С. Концепт. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1996. – С. 90-97; Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка, их личностная и национальная специфика. Дисс... д-ра филол. наук. – Воронеж, 1997. – 275 с.; Колёсов В.В. Язык и ментальность. – СПб: Петербургское востоковедение, 2004. – 240 с.; Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. 2001. №1. – С. 64-72; Карасик В.И., Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж: Воронежский государственный университет, 2001. – С. 75-80; Каюмова Д.Ф. Ключевой концепт «мир человека» (на материале английской, татарской и турецкой лингвокультур) // Балтийский гуманитарный

Safarov, D.U. Ashurova, M. Galiyeva, D. Xudoyberganova, A.A. Abduazizov, N.M. Djusupov, O'.Q. Yusupov, M.M. Raxmatova, T. Mardiyev, N.Z. Normurodovlarning³ ishlarida ko'rib chiqilgan. Konseptning tabiati, uni tadqiq hamda ifoda usullari faol o'rganilganiga qaramay, konsept muammosini hal qilishda yagona yondashuv mavjud emas. Xususan, konseptning tuzilishi, modellashtirish imkoniyati, ifoda shakli va uni obyektivlashtiradigan lisoniy birliklarning mazmuni masalalari hamon munozarali bo'lib qolmoqda. Konsept muammosi bo'yicha yagona nuqtai nazarning yo'qligi konseptual tadqiqotning nisbatan yangiligi bilan ham, ushbu mental mohiyatning murakkabligi va ko'p funktsionalligi bilan ham bog'liq.

“Yurak/heart” konseptining matn doirasida shakllanishi A.V. Gandaloyeva, Z.R. Srimova, D.A. Zibrov, Yu.V. Shatin, I.A. Sapegina, T. Mardiyev⁴ kabi olimlar ishlarida o'z aksini topgan. Biroq, o'zbek tilshunosligida “yurak” konseptining paremiologik va frazeologik matn doirasida shakllanishi, qiyosiy tahlili, shuningdek, uning tarjimada qayta yaratilishi muammolariga bag'ishlangan ishlar deyarli mavjud emas.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Diskursning kognitiv, pragmatik va sosiolingvistik tadqiqi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz tillari frazeologik va paremiologik mantlari doirasida “yurak/qalb” – “heart/soul” konseptini shakllantiruvchi lisoniy vositalarni qiyosiy o'rganib, ularning semantikasi va faollashuvida umumiy va o'ziga xos jihatlarni aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

o'zbek va ingliz tillarida “yurak/heart” konseptini ifodalovchi asosiy lisoniy birliklarni aniqlash, ularning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
chog'ishtirilayotgan tillar frazeologik tuzilmalarida “yurak/qalb” –

журнал. 2013. № 4. – С. 89-93; Замалетдинов Р.Р. Внутренний и внешний мир носителей татарской культуры через призму языка. – Казань: Изд-во Казанского ун-та, 2003. – 208 с.;

³ Safarov Sh.S. “Konsept” hodisasi haqida // Sistem-struktur tilshunoslik muammolari. – Samarqand, 2010. – B. 185-188; Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Cognitive linguistics. – T.: Vneshinvestprom, 2018. – 160 p.; Xudoyberganova D. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini. – Toshkent, 2015; Abduazizov A.A. О соотношении когнитивной семантики и стилистики // Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida. – Toshkent, 2011. – С. 29-35; Джусупов Н.М. Лингвокогнитивный аспект исследования символа в художественном тексте. Авт. дисс... к.ф.н. – Т.; 2006. – 29 с.; Yusupov O'.Q. Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamallari xususida // Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida. – Toshkent, 2011. – B. 49; Raxmatova M.M. Ingliz, o'zbek va tojik milliy madaniyatida “go'zallik” konseptining lisoniy xususiyatlari. Filol. fan. bo'yicha fal. dok. (PhD) diss... avtoref. – Buxoro, 2019. – 33 b.; Mardiyev T. “Baxt” konseptining lingvomadaniy va semantik talqini (ingliz va o'zbek tillari qiyosida) // Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim. – Samarqand, 2016. №10. – B. 36-44; Normurodova H.Z. Антропоцентризм художественного дискурса. – Т., 2019. – 164 с.

⁴ Гандалоева А.В. Фразаологические единицы с компонентами «голова» и «сердце» в ингушском языке в сопоставлении с английским. Дисс... канд. филол. наук. – М., 2013. – 170 с.; Примова З.Р. Концепт «сердце» в языковой картине мира (на материале кабардинского, русского и английского языков). Дисс... канд. филол. наук. – Нальчик, 2003. – 145 с.; Зибров Д.А. Концепт «сердце» в аспекте концептуальной систематики языка. Дисс... канд. филол. наук. – Иркутск, 2009. – 158 с.; Шатин Ю.В. Концепт «сердце» и его художественная деконструкция в русской поэзии XX века // Критика и семиотика. Вып. 15. – Новосибирск, 2011. – С. 189-196; Сапегина И.А. Концепт сердце как доминанта эмоциональной картины мира в русском языке в зеркале китайского языка. Дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2011. – 202 с.; Mardiyev T. Ingliz va o'zbek tilidagi “yurak” konseptining verballashuvi // Xorijiy filologiya. – Samarqand: SamDChTI nashriyoti, 2017. №5. – B. 68-74.

“heart/soul” konseptining emosiyani ifodalash xususiyatini tadqiq qilish;

o‘zbek va ingliz tillarida “yurak/heart” konseptining paremiologik matnlarda voqelanishini qiyosiy o‘rganish;

“yurak/heart konseptlari ishtirokidagi paremiyalarni tarjima qilish muammolarini belgilash hamda ushbu muammolar yechimini topishga oid tavsiyalarni taklif qilish.

Tadqiqotning obyekti. O‘zbek va ingliz tili frazeologik va paremiologik matnlarida voqelangan “yurak/qalb” – “heart/soul” konseptual tushunchasining assosiativ bog‘lanishlari va kognitiv modellari.

Tadqiqotning predmeti. “Yurak/qalb” – “heart/soul” konseptining o‘zbek va ingliz tili frazeologik va paremiologik matnlarida faollashuvi hamda tarjima tilida berilishi xususiyatlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, chog‘ishtirma, konseptual tahlil, kontekst tahlili, lisoniy vositalar semantik tavsifi natijalarining kognitiv tahlili kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va ingliz tillarida “yurak”/“heart” konseptinining lingvomadaniy, semantik, falsafiy-diniy va emosional xususiyatlari o‘rganilib, har ikkala tilda yurakning qobiliyatlari oqilona fikrlashdan ko‘ra ko‘proq hissiy tamoyil bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan;

chog‘ishtirilayotgan tillar frazeologik tuzilmalarida “yurak/qalb” – “heart/soul” konsepti ijobiy, salbiy va neytral insoniy his-tuyg‘ularni, jumladan, kuchli hayajon, befarqlik, jismoniy og‘riq, qo‘rquv, xafagarchilik, yovuzlik; romantik tuyg‘ular, jasorat, yengillik, mehribonlik, samimiylik; xotira, sezgi, fikrlash kabi holatlarni ifodalash xususiyatlari yoritilgan;

o‘zbek tili paremiologik matnlarida “yurak” konsepti “qalb”, “dil”, “ko‘ngil” leksemalari orqali voqelanishi, ingliz tilida esa “heart” konsepti “soul”, “purpose”, “body”, “man”, “memory”, “love”, “courage”, “contemplation” kabi leksemalar yordamida verballashuvi hamda ularning semantik xususiyatlari o‘rganilgan;

“yurak/ heart konseptlari ishtirokidagi paremiyalarni tarjima qilish muammolari belgilangan hamda ushbu muammolar yechimini topishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

tadqiqot natijalari nafaqat filologiya fanlari, balki boshqa gumanitar va ijtimoiy fanlar uchun ham muhimligi izohlangan;

tadqiqot doirasida ilk marotaba “yurak/heart” konseptini o‘zbek va ingliz tillarida salbiy, ijobiy va neytral his-tuyg‘ularni ifodalovchi frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan bo‘lib, bu o‘rganilayotgan tillarning universal, milliy va madaniy xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi;

o‘zbek va ingliz tillari frazeologik birliklarida salbiy, ijobiy va neytral his-tuyg‘ularni ifodalovchi “yurak/heart” konseptining xususiyatlarini o‘rganish natijalari turli tillarning materiallari asosida boshqa konseptlarni tahlil qilishda asos bo‘la oladi;

tadqiqot natijalaridan o‘zbek va ingliz filologiyasi fakultetlari, oliy o‘quv yurtlarining “tarjimashunoslik” yo‘nalishi talabalari uchun uslubiy va tahliliy material sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy filologiya fanida qo‘llaniladigan yondashuvlar va usullarni qo‘llash, tarjimashunoslikning dastlabki fundamental ilmiy-nazariy qoidalari, shuningdek, katta hajmdagi tahlil qilingan faktologik materialdan foydalanilganligi bilan, tadqiqot natijalari ishning nazariy mazmuniga mosligi bilan ta‘minlangan. Tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari nashr etilgan ishlarda o‘z aksini topgan. Olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, o‘zbek va ingliz tili frazeologik va paremiologik matnlari materiallari asosida konseptual vositalarni falsafiy, madaniy, kognitiv jihatdan tadqiq qilish lisoniy omillar tabiatini yanada kengroq va chuqurroq ochib berishga imkon beradi, ushbu holat erishilgan xulosalarning samaradorligi va istiqbolidan dalolat beradi hamda zamonaviy tilshunoslikning nazariy asoslarini boyitish va tarjima muammolarini o‘rganish va hal qilishning yangi usullarini ochib beradi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati olingan natijalar va materiallardan oliy o‘quv yurtlarining o‘quv jarayonida umumiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, stilistika va badiiy matn tahlili, matn tilshunosligi, lingvopragmatika, lingvomadaniyat bo‘yicha ma‘ruzalar va seminarlarni tayyorlash va o‘tkazishda; tarjimashunoslikda badiiy matnning kognitiv strukturasi, lisoniy vositalarning konseptual faollashuvi va ularning tarjima tilida qayta yaratilishi to‘g‘risida tavsiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan darsliklarni yaratish, shuningdek, maxsus frazeologik lug‘atlar va ma‘lumotnomalarni tuzishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Yurak/HEART” konseptual tushunchasining paremiologik va frazeologik matnlarda faollashuvi yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

o‘zbek va ingliz tillarida “yurak”/“heart” konseptinining lingvomadaniy, semantik, falsafiy-diniy va emosional xususiyatlari o‘rganilib, har ikkala tilda yurakning qobiliyatlari oqilona fikrlashdan ko‘ra ko‘proq hissiy tamoyil bilan bog‘liq ekanligi haqidagi tahlil natijalari English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutida 2024-yil 8-avgustda 1526/02-son ma‘lumotnomasi). Natijada olingan tahlil va xulosalardan badiiy matnlarni xitoy tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish amaliyoti takomillashib, magistratura talabalari uchun tashkil etilgan onlayn kurslarni tashkillashtirishda manba bo‘lib xizmat qildi.

chog‘ishtirilayotgan tillar frazeologik tuzilmalarida “yurak/qalb” – “heart/soul” konsepti ijobiy, salbiy va neytral insoniy his-tuyg‘ularni, jumladan, kuchli hayajon, befarqlik, jismoniy og‘riq, qo‘rquv, xafagarchilik, yovuzlik; romantik tuyg‘ular, jasorat, yengillik, mehribonlik, samimiylik; xotira, sezgi, fikrlash kabi holatlarni ifodalash xususiyatlari yoritilganligi haqidagi natijalar SUZ-800- 21GR-381 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil

18-sentabrdagi 04/2944-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya materiallari tilshunoslik va tarjimashunoslik kabi fanlarning o'qitilishida hamda mazkur amaliy loyiha bo'yicha elektron resurslar, bosma darslik uchun manbalar va nazariy hamda amaliy materiallar tayyorlanayotganida muhim manba bo'lib xizmat qildi;

o'zbek tili paremiologik matnlarida "yurak" konsepti "qalb", "dil", "ko'ngil" leksemalari orqali voqelanishi, ingliz tilida esa "heart" konsepti "soul", "purpose", "body", "man", "memory", "love", "courage", "contemplation" kabi leksemalar yordamida verballashuvi hamda ularning semantik xususiyatlari ifodalagan ma'nolar bo'yicha taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasida 2024-yil 29-avgustdagi kuni efirga uzatilgan "Assalom Samarqand!" ko'rsatuvining navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand Teleradiokompaniyasining 2024-yil 29-avgustdagi 01-07/231-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy ommabop ahamiyatga ega tavsiyalaridan keyingi ko'rsatuvlarda ham foydalanish ko'zda tutilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 2 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan xorijiy nashrlarda 3 ta maqola, mahalliy respublika jurnallarida 3 ta va boshqa xorijiy va mahalliy nashrlarda 6 ta maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy qismi 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi dalillangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot ob'yekti, predmeti va usullari ko'rsatilgan; ilmiy yangilik ifodalangan, tadqiqotning amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan va ularning nazariy-amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobasiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Olam lisoniy manzarasida "yurak/heart" konsepti**" deb nomlangan birinchi bobi olam milliy manzarasini tasvirlashda stereotip tuzilmalarning roli, "yurak/heart" konseptining lingvomadaniy talqini, semantik izohi, falsafiy-diniy va emosional jihatlariga bag'ishlangan.

Ma'lumki, har bir muayyan jamiyatdagi shaxslarning asosiy qismi turg'un stereotiplar to'plamiga ega. Bu to'g'ridan-to'g'ri etnik guruhning milliy xarakteriga bog'liq, chunki ushbu etnik guruhda yashovchi odamlarning stereotiplari aniq bo'lib, boshqa etnik guruhlar vakillari bir-biriga nisbatan ko'rsatadigan yoki his qiladigan narsalardan keskin farq qilishi mumkin. Shu munosabat bilan, ma'lum bir

davrda u yoki bu etnik guruh vakillari “o‘zini qanday tutishi” ko‘pgina olimlarni qiziqtiradi.

A.E. Mamatovning ta’kidlashicha, frazeologik birliklar o‘z tarkibida so‘z yoki so‘z birikmalaridan iborat bo‘lgan barqaror leksik-semantik birlik bo‘lib, umumlashtirilgan ma’noni anglatadi⁵. Sh. Rahmatullayev frazeologizmlar doirasini ancha toraytirdi va faqat ko‘chma ma’noga asoslangan barqaror birliklarningina frazeologizmlar tarkibiga kiritdi. Xususan, bu haqda u quyidagilarni yozadi: “Ibora mustaqil turkumlarga mansub bittadan ortiq so‘zdan tarkib topgan bir butun semantik hamda grammatik birlik sifatida gavdalanadi. Ibora lug‘aviy ma’no anglatish uchun xizmat qiladi”⁶. Olim frazeologizm deganda, faqat ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan turg‘un birikmalarningina tushunish tarafdori edi.

Paremiyalarning lisoniy xususiyatlaridan biri, ularning nominativ xususiyatidir. Nutqda so‘z predmet, hodisa, voqelik va hokazolarni nomlashi mumkin, biroq so‘zning belgisi (uning virtual tarkibi) – tushunchadir. Paremiyaning mantiqiyliqi, tafakkur belgisi – tushunchalarning birikmasidir, ya’ni ifoda – maqol, hukm-masal.

Frazeologizmlar o‘zlarining to‘liqligi, ishlatilish qulayligi, ixcham va nafisligi bilan boshqa til birliklaridan farq qiladi. Ular til birligi sifatida ifodalanadi va nutqning ta’sirchanligini oshiradi. O‘zbek tilshunos olimlari orasida Sh. Rahmatullayev (1966), M. Sodiqova (1993), M. Abduraximov (1980), A.E. Mamatov (1991), B. Yuldashev (1993), M.K. Xalikova (1999), K.D. Tuxtayeva (2006), Sh. Abdullayev (2006), G.S. Xakimova (2008) va G. Ergashevalar (2011) frazeologizmlar va ularning xususiyatlarini o‘rgandilar, frazeologik birliklar haqidagi ilmiy va nazariy tushunchalarini bayon qildilar.

Konsept hodisasini tushunishga lingvomadaniy yondashuv madaniy va tarixiy omillarning tilga ta’siri bilan tavsiflanadi. Lingvomadaniyatshunoslik doirasida konsept genetik hodisa sifatida tavsiflanadi va nafaqat individual, balki jamoaviy tafakkurni ham belgilaydi. Yu.S. Stepanov, S.X. Lyapin, G.G. Slishkin, S.G. Vorkachev, V.V. Kolesov, V.I. Karasik, N.F. Alefirenko, Sh.S. Safarov, A. Mamatov, O‘.Q. Yusupov va boshqalar lingvomadaniy yondashuv asoschilaridir.

Sh.S. Safarov konsept – dastlabki o‘rinda, shaxsning lisoniy-mantiqiy faoliyati samarasi ekanligini ta’kidlaydi⁷. T. Mardiyevning fikriga ko‘ra, konseptlar, odatda, inson turmush tarzi bilan bog‘liq ma’lum tushunchalarni maxsus qoliplarga solish, lisoniy va madaniy mavjudligini belgilashga qaratiladi. Ma’lum bir konsept har bir lingvomadaniyatda o‘ziga xos shakllanishga ega sanaladi. Konseptlar, o‘z navbatida, so‘z ma’nolariga nisbatan keng talqin etiladigan, murakkab tipologik qurilmaga ega⁸.

I.A. Tarasova “yurak” konsepti barqaror birliklarni yaratishda faol ishtirok etishini asoslab, ko‘pincha konsept ma’nosini va frazeologik birliklar ma’nosi

⁵ Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Fil. fan. dok. ...dis. – T.: 1991. – 165 b.

⁶ Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 405 b.

⁷ Safarov Sh.S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B. 21-25.

⁸ Mardiyev T. “Baxt” konseptining lingvomadaniy va semantik talqini (ingliz va o‘zbek tillari qiyosida) // Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta’lim. – Samarqand: SamDChTI nashriyoti, 2016, №10. – B. 36-44.

o'rtasida genetik bog'liqlik mavjudligini ta'kidlaydi. Frazеologik birliklarning prototipi fiziologik hissiyotlar va insonning ichki dunyosini tavsiflovchi iboralardir⁹.

A. Madvaliyev tahriri ostidagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "Yurak" leksemasining quyidagi ta'riflari keltirilgan¹⁰:

1. Anatomik organ. Odam va hayvonlar ko'krak qafasi ichida joylashgan, ularning qon aylanish sistemasidagi muskul qopchiqqa o'xshagan markaziy a'zo. Masalan: *sog' lom yurak, yurakning urushi, yurak kasalligi, yurak klapani*.

2. Ko'chma ma'noda. Kishining his-sezgisi, ruhi, kechinmalarining ramziy markazi, ular saqlanadigan joy; qalb, dil. Masalan: *Paxtazorda bo'lib o'tgan janjal Oyqiz yuragida chuqur iz qoldirdi*.

3. Qo'rqmaslik, jasorat va shu kabilarning shakliy ramzi. Misol uchun: *Men uning O'tapboy qushbegiga qilgan muomalasini eshitib, yuragiga balli, degan edim*.

4. Ko'chma ma'noda. Biror narsaning asosi, markazi. Masalan: *Ha, ular Toshkent temir yo'l ustaxonasi Turkistonda qo'zg'alongning yuragi ekanini tushunadilar*.

5. So'zlashuv tilida. Qorin, oshqozon. Misol: *Uning yuragi g'ijimlab og'riyapti*.

"Yurak" leksemasida inson tuyg'ulari konseptual belgilari ko'p bo'lib, ingliz va o'zbek tillarida shundan to'rttasi keng qo'llaniladi: a) fiziologik organ sifatida tushunilish; b) inson tuyg'ulari majmui; v) insonga xos tuyg'usining muhim markaziy qismi; g) yurakning ramziy tasviri kabilar¹¹.

Tadqiqot dorasida "yurak" konseptini uning lisoniy ko'chma ma'nosidagi his-sezgi, ruh, kechinmalarining ramziy markazi, qalb, dil sifatida ko'rib chiqildi. "Yurak" va "qalb" tushunchalari o'zbek tilida sinonim ravishda qo'llaniladi. "Qalb" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'riflanadi¹²:

1. Yurak, dil, o'rtalik, markaz. Misol: *Men uzoq vaqtgacha uxlay olmay yotdim, nafasim qisilib, qalxim notinch tepardi*.

2. Ko'chma ma'noda. Kishining ruhiy yoki ma'naviy dunyosi, ichki his-tuyg'ulari markazi ramzi; yurak, dil, ko'ngil. Misol: *Qiz o'z qalbini Yo'lchiga bag'ishlagan edi*.

Shuningdek, ushbu so'zning ikkinchi, omonimik ma'nosi ham mavjud¹³:

1. Aldam-qaldam, qing'ish ishlar qiladigan qallob, nopok. Misol: *Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyulmas*. Ushbu maqolda "qalb" so'zi nopok, baxil, egri shaxsga nisbatan qo'llanilgan. Mazmuni: Nopok insonning ishi baroridan kelmaydi.

2. Nopok, egri, qing'ir (sifat so'z turkumi). Misol: *Qalb ishga qo'l urmoq*.

Ma'lumki, "yurak/qalb" konsepti turli xil salbiy va ijobiy his-tuyg'ular bilan chambarchas bog'liq. Asosan mazkur konsept ongimizda sevgi hissini tasvirlashda ishlatiladi.

⁹ Тарасова И.А. Введение в когнитивную поэтику. – Саратов: Науч. кн, 2004. – 48 с.

¹⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008. – B. 87-88.

¹¹ Mardiyev T. Ingliz va o'zbek tilidagi "yurak" konseptining verballashuvi // Xorijiy filologiya. – Samarqand, SamDChTI nashriyoti, 2017. №5. – B. 70.

¹² O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008. – B. 226.

¹³ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008. – B. 227.

Ingliz tili izohli lug‘atlarida qayd etilishicha, “yurak” tushunchasi quyidagi ma’nolarda ishlatiladi¹⁴:

Ot so‘z turkumi sifatida

1. Ko‘krak qafasida joylashgan qonni tana bo‘ylab yuboradigan organ. Misol: *My heart is beating fast.*

2. Inson xarakterini ifodalaydi yoki sevgilar, hissiyotlarning kelib chiqish markazini anglatadi. Masalan: *I love you with all my heart.*

3. Markaziy yoki eng dolzarb qism. Masalan: *Let’s get to the heart of the matter.*

4. Cabzavotning qattiq markaziy qismi. Misol: *The heart of the lettuce.*

5. Jasorat, qat’iyat yoki umid. Masalan: *Take heart – things can only get better.*

6. Yuqori qismi ikkita yarim doiradan va pastki qismida V shaklidan iborat shakl, ko‘pincha pushti yoki qizil rangga bo‘yalgan va sevgi ramzi sifatida ishlatiladi. Misol: *The balloon was heart shaped.*

7. O‘ynaladigan qarta shakllaridan biri. Misol: *In this game a heart beats a club.*

Fe‘l so‘z turkumi sifatida

Biror kimni yoki narsani qattiq sevish. Masalan: *I heart New York.*

Demak, ingliz tilida “yurak” tushunchasi anatomik organ, markaziy qism, hissiyotlar markazi, dolzarb qism, geometrik shakl, qarta o‘yini shakli, shuningdek fe‘l so‘z turkumi sifatida va “sevmoq” ma’nosida ishlatiladi. O‘zbek tilidan farqli o‘laroq, ingliz tili izohli lug‘atida ko‘rsatilganidek, “heart” tushunchasining kengroq ma’noda, ya’ni geometrik shakl, qarta o‘yini shakli, va sevmoq ma’nolarida ham ishlatiladi.

Shuningdek, “heart” so‘zi ingliz tilida fe‘l so‘z turkumi sifatida “sevmoq” ma’nosini anglatadi. O‘zbek tilida esa ushbu tushuncha fe‘l so‘z turkumi vazifasida kelmaydi.

Ingliz tilida “soul” o‘zbek tilidagi “qalb” so‘ziga nisbatan kengroq ma’nolarga ega bo‘lib, ruh, jon, musiqa turi, shuningdek Afro-Amerikaliklar madanitini anglash va faxrlanish ma’nolarida ham ishlatiladi. Ushbu tushunchaning ehtiros, his-tuyg‘u ma’nolarida kelishi inglizcha “heart” so‘zi bilan sinonimiyani hosil qila oladi.

“Yurak/qalb” konsepti muammolari N.A. Berdyayev, S.N. Bulgakov, B.P. Visheslavsev, I.A. Ilin, L.P. Karsavin, N.O. Losskiy, D.S. Merejkovskiy, G.S. Skovoroda, V.S. Solovyev, P.A. Florenskiy, S.L. Frank, P.D. Yurkevich kabi faylasuf va dinshunoslar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ma’lumki, “yurak/qalb” konsepti turli xil salbiy va ijobiy his-tuyg‘ular hamda ehtiroslar bilan chambarchas bog‘langan. Ayniqsa, yurak bizning tafakkurimizda insoniy muhabbat hamda falsafiy va diniy jihatdan Ollohga nisbatan muhabbat hissi ramzi hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, “insonning aqliy yoki ichki dunyosi” semantik guruhiga ijobiy, salbiy va neytral his-tuyg‘ular kiradi, xususan: a) romantik tuyg‘ular; b) ezgulik, saxiylik; c) jasorat, mardlik; d) befarqlik, qo‘pollik, hissizlik, shafqatsizlik; e) samimiylilik, halollik, ochiqlik, vijdon; f) osudalik, yengillik; g)

¹⁴ Cambridge Dictionary. <https://dictionary.cambridge.org>.

qo‘rquv, qo‘rqoqlik, noaniqlik, qat’iyatsizlik; h) azob, qayg‘u, sog‘inch, tashvish; i) yovuzlik, g‘azab, nafrat; k) haqorat, xafagarchilik; d) sezgi, shubha.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Yurak/qalb**” – “**heart/soul**” konseptining frazeologik matnlarda voqelanishi” deb nomlangan. Mazkur bobda o‘zbek va ingliz frazeologik tuzilmalarida “yurak/qalb” - “heart/soul” konseptining ijobiy, salbiy va betaraf emosiyani ifodalashi o‘rganilgan.

Chog‘ishtirilayotgan tillarda “yurak”/“heart” – hissiyotlar va tuyg‘ular paydo bo‘ladigan joydir. Mazkur tillarning izohli lug‘atida “yurak”/“heart” tushunchasining qo‘shimcha ma’nosi “kishining his-sezgisi, ruhi, kechinmalarining ramziy markazi, ular saqlanadigan joy, qalb, dil”¹⁵; “used to say that you like someone or something very much”; “the center of a person’s emotions, or the general character of someone”¹⁶; “the emotional or moral nature as distinguished from the intellectual nature”; “love, affection”¹⁷; “deep feeling and belief; someone’s character and attitude towards other people, especially when they are kind and generous”¹⁸; “the place in a person where the feelings and emotions are thought to be, especially those connected with love”¹⁹ ekanligi qayd etilgan.

Turli tillarda “yurak(qalb)/heart(soul)” konsepti quyidagi *ijobiy his-tuyg‘ularni* ifodalaydi: 1) romantik tuyg‘ular (sevgi, muhabbat, yoqtirish, hurmat, izzat, muloyim muomala, qiziqish); 2) samimiylilik (halollik, ochiqlik, iymon, rostgo‘y, vijdonlilik); 3) jasorat (qat’iyat, mardlik, qo‘rqmaslik, jur‘at, shijoat, iroda); 4) ezgulik (saxiylik, muloyimlik, sezgirlilik, rahm); 5) yengillik (xotirjamlik, quvonch, zavq).

Tarkibiy qismi turlicha bo‘lgan tillarda “yurak(qalb)/heart(soul)” konsepti quyidagi *salbiy his-tuyg‘ularni* ifodalaydi: 1) jismoniy og‘riq (yurak urishi, ochlik, bosim); 2) qattiq hayajon (azob, g‘amgin yoki yomon kayfiyat, umidsizlik, qayg‘u, sog‘inch, g‘am, qalb yarasi, tashvish, vahima, kuchli hayajon, alam, achinish); 3) qo‘rquv (dahshat, qo‘rquv, xavf hissi, qo‘rqoqlik, qat’iyatsizlik, ishonchsizlik); 4) befarqlik (parvosizlik, sovuqqonlik, qo‘pollik, shafqatsizlik); 5) g‘azab (yomonlik, asabiylik, g‘azab, nafrat, norozilik, rashk); 6) xafagarchilik (afsus, haqorat, istamaslik, muammo).

Qiyoslanayotgan tillarda “yurak(qalb)/heart(soul)” konsepti quyidagi *neytral his-tuyg‘ularni* ifodalaydi: 1) xotira (xotira, sir); 2) tafakkur (fikr); 3) sezgi (oldindan sezish, bashorat qilish, shubha).

O‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida “yurak/qalb” – “heart/soul” konsepti odatda yaqin insoni, sevgilisiga murojaat etishda qo‘llaniladi. O‘zbek tilida “yurak/qalb” konsepti yordamida murojaatning quyidagi shakllari mavjud: “*yuragim/qalbm/jonim/dilim*”, “*yuragim/qalbm parchasi*”, “*qalbm ayoli*”, “*qalbm qirolichasi/malikasi*”. Masalan: “*Ey, Fotima qizim, qalbm parchasi, Otang fido bo‘lsin, senga*” *derdilar*²⁰.

¹⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2008. – B. 18.

¹⁶ Cambridge Dictionary. <https://dictionary.cambridge.org>.

¹⁷ Merriam Webster. <https://www.merriam-webster.com>.

¹⁸ Collins Dictionary. <https://www.collinsdictionary.com>.

¹⁹ Oxford Dictionary. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com>.

²⁰ <https://kutubxona.samduuf.uz>

Ingliz tilida ham yaqin insoniga nisbatan “*my heart*”, “*my soul*”, “*piece of my heart*”, “*king of my heart*”, “*queen of my heart*” iboralari ishlatiladi. Shuningdek, o‘zbek tilidan farqli ravishda, ingliz lingvomadaniyatida “*dear to my heart*” (yuragimga aziz), “*near to my heart*” (qalbinga yaqin), “*close to my heart*” (qalbinga yaqin) kabi frazeologik birikmalar shaxsning sevimli insoniga nisbatan murojaatida qo‘llaniladi. Qiyoslang:

*Let the **King of my heart***

*Be the mountain where I run*²¹

O‘zbek lingvomadaniyatida biron kishini yoki narsani ma’qullash, yoqtirish “*yuragini bermoq*”, “*yuragidan/qalbidan joy olmoq*” frazeologizmlari yordamida lisoniy shakllanadi.

Yuragimni beraman, o‘zgani demasang.

*O‘zimni ayblaveraman, baxtli bo‘lmasang*²².

Ingliz tilida “*to love with all heart and soul*”, “*capture one’s heart*”, “*steal one’s heart*”, “*heart goes out*”, “*heart skips a beat*” kabi bir qator iboralar romantik tuyg‘uni, aniqrog‘i, biror shaxsni yoki narsani ma’qullash, yoqtirish tuyg‘ularini lisoniy voqelantirishda ishlatiladi: *I love with you all my heart, and I promise to always be there for you.*

O‘zbek va ingliz tillarining frazeologizmlarida “yurak/qalb” – “heart/soul” – bu qutti, sevgi xazinasi, eng samimiy hissiyotlar saqlanadigan joy. Sevgiga erishish, g‘alaba ushbu quttining “kalit”ini topib, ochish demakdir. Masalan:

*Sevgidan uzoqlashgan yuragining kalitini topish oson emas*²³;

*A delicious meal has always been the key to my wife's heart if she's annoyed with me or feeling down in the dumps*²⁴.

“Yurak/qalb” – “heart/soul” konseptining yana bir frazeologik xususiyati shundaki, uning harorati mavjud bo‘lib, natijada “*erishi*”, “*yumshatilishi*”, “*yonishi*” (“*melt*”, “*soften*”, “*burn*”) ham mumkin. Ushbu xususiyat har ikkala lingvomadaniyatda kuzatiladi:

*Eshik tomon burilarkan qadamini sekinlatib erining qizini erkalatib aytayotgan so‘zlaridan qalbi eridi*²⁵;

*She could also perform vocal display pieces as persuasively as she could melt the heart in any love song*²⁶.

O‘zbek lingvomadaniyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, “yurak/qalb” konsepti tabiat resurslari bilan assosiasiyalangan holda sevikli yorga, yaqin insonga nisbatan murojaat shaklida ishlatilishi mumkin: “*qalb chechagi*”, “*qalb suyangan tog‘i*”, “*qalb quyoshi*”, “*qalb bahori*”, “*qalb bo‘stoni*”, “*qalb chamani*”, “*qalb zarhali*”...

Ingliz tilida “*warm the cockles of someone’s heart*” iborasi uchraydi. Uning so‘zma-so‘z tarjimasini “birovning yuragining burchagini isitmoq” bo‘lib, “baxtni his qilish” ma’nosida ishlatiladi: *In the meantime, while the weather turns cold outside,*

²¹ MacMillan J.M. Jesus Culture

²² Saida. Keraksan

²³ <https://www.ziyouz.com/rahmat-fayziy-1918-1988>.

²⁴ Dictionary by Farlex. <https://www.thefreedictionary.com>.

²⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2008. – B 225.

²⁶ Collins Dictionary. <https://www.collinsdictionary.com>.

*here is a gorgeous selection of the latest entries to warm the cockles of your heart...*²⁷

Chog'ishtirilayotgan tillarda samimiylik – lisoniy shaxslarning deyarli har qanday faoliyat sohasiga nisbatan qo'yiladigan talab bo'lib, yurak uning “kelib chiqish” joyi vazifasini bajaradi, masalan: “*yuragi/qalbi ochiq*” – “*open-hearted*”, “*chin yurakdan/qalbdan*”, “*yuragining/qalbining tubidan*” – “*from the bottom of the heart*”.

O'zbek va ingliz tillarida “yurak/qalb” – “heart/soul” – samimiylik, poklik, adolat, halollik, muqaddaslik va gunohsizlik ramzi hisoblanadi va quyidagi birikmalar orqali ifodalanadi: “*yuragi/qalbi sof*”, “*yuragi/qalbi toza*”, “*yuragi/qalbi pok*” – “*pure heart/soul*”, “*clean heart/soul*”, “*willing heart*”.

Ma'lumki, sher – jasoratli, shijoatli va qo'rqmas hayvonlar shohi hisoblanadi. Chog'ishtirilayotgan tillarda “sher” – “lion” ramzining mardlik belgisi sifatida ishlatilishi universal xususiyat hisoblanib, “yurak” – “heart” konsepti bilan assosiasiyalangan holda qo'llanilishi mumkin. “*Sheryurak*” – “*lion-hearted*” jasur va jasoratli, qo'rqmas, qat'iyatli shaxsni ifodalaydi.

Ezgulik, rahmdillik, yaxshilik, ochiqlik inson yuragi/qalbining xususiyatlari bilan taqqoslanadi: “*qalbi ochiq*” – “*open-hearted*”, “*yuragi/qalbi g'uborsiz/toza/sof/pok*” – “*clean-hearted*”, “*qalbi samimiy*” – “*good hearted*”, “*ulkan qalb sohibi*” – “*big hearted*”.

Chog'ishtirilayotgan tillarning umumiy jihati, shuningdek, ezgulik tuyg'usining “oltin” ramzi bilan bog'liqligi. Ko'rinishidan, metallni tanlash tasodifiy emas, chunki oltin har doim o'zining go'zalligi va boyligi uchun qadrlanadigan eng qimmat metallardan biri hisoblangan: “*yuragi oltindan*” – “*golden-hearted*”.

O'zbek va ingliz lingvomadaniyatida inson qayg'usini ifodalovchi yurak og'rig'i “davolanishi” lozim, tinchlik yurakka yengillik keltiradi, ya'ni unga og'irlik qilgan tashvish va qattiq hayajonlarni yengillashtiradi. O'zbek tilida “*yuragi/qalbi yengil tortdi*”, “*yuragi/qalbi bo'shadi*”, “*yuragi/qalbi tinchlandi*”, “*yuragi/qalbi yorishdi*” kabi frazeologik birikmalar yengillikni ifodalasa, ingliz tilidagi “*one's heart eased*”, “*one's heart revealed*”, “*one's heart lightened*” iboralari ularga muqobil bo'la oladi.

O'rganilayotgan ikki tilning umumiy jihati shundaki, “yurak”/“heart” har qanday noqulaylikni – yolg'izlik, qo'rquv va jismoniy og'riqni his qiladi: *yuragi baquvvat* – *strong heart*; *yurak urishi* – *heart beat*; *yuragi sanchmoq* – *heart prick*; *yuragi to'xtamoq* – *heart stop beating, heart skip a beat*; *yurak xuruji* – *heart attack*; *yurak o'ynashi* - *fluttering or pounding heart, racing heart*.

Chog'ishtirilayotgan lingvomadaniyatlarda qattiq hayajon inson qalbida halokatli ta'sirni ifodalaydi, masalan, o'zbek va ingliz tillarining frazeologik birikmalarida, yurak/qalb yonayotganday tuyulishi mumkinligi qayd etilgan: *yuragi/qalb yonmoq, kuymoq* – *heart is on fire*.

²⁷ Collins Dictionary. <https://www.collinsdictionary.com>.

Misol: *Yuraklari kuyib ketib* Temurxon “*Vo bolam*” deb mayib norday yig‘ladi²⁸;

*I feel as if my heart is on fire*²⁹.

Ingliz tilidagi “to loose, give up heart” iborasining so‘zma-so‘z tarjimasi “yuragini yo‘qotmoq, olib tashlamoq” bo‘lib, o‘zbek tilida bunday ifoda turi mavjud bo‘lmaganligi sababli uning muqobili sifatida “umidsiz bo‘lmoq”, umidini uzmoq” iborasidan foydalaniladi:

He appealed to his compatriots not to lose heart.

Tarjimasi:

U vatandoshlarini umidini uzmaslikka chaqirdi.

Shuningdek, “heart” leksemasi yordamida shakllangan ingliz tilidagi “yeat one’s heart out” (so‘zma-so‘z tarjimasi: “yuragini yemoq”) iborasi o‘zbek tilida “ichini yemoq” tarzida, “to have a heart attack” (so‘zma so‘z tarjimasi: “yuragi xuruj qilmoq”) frazeologik birikmasi esa ko‘chma ma’nodan “qattiq hayajonlamon” tarzida ifodalanadi.

O‘zbek tilida “yurak” konsepti yordamida shakllangan qo‘rqish, vahimaga tushish, cho‘chish, xavf hissini sezish tuyg‘ularini ifodalovchi quyidagi frazeologizmlar mavjud: “yuragi yorilmoq”, “yuragi shuv etmoq”, “yuragi shig‘ etmoq”, yuragi zir etmoq”, “yuragi orqasiga tortmoq”, “yuragi dukillamoq”, “yuragi po‘killamoq”, “yuragi taka-puka bo‘lmoq”, “yuragi chiqmoq”, “yuragi o‘ynamoq”, “yuragi yormoq”, “yuragini hovuchlamoq”, “yurak oldirmoq”, “yuragi tushmoq”, “yurak yutib”. Ushbu iboralar qattiq qo‘rquv natijasida yurak urishi holatini tasvirlaydi. Demak, qo‘rquv hissi organizmdagi fiziologik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Ingliz tili frazeologik birikmalarida qo‘rquv, dahshat, vahima tuyg‘usi o‘ziga xos tarzda ifodalanadi: *heart skips a beat, heart stood still, nearly gave a heart attack, heart is knocking, strike fear/terror into one’s heart, heart popped out, heart jumped out of the chest, heart burst out, heart leaped from horror, heart missed a beat, to have one’s heart in one’s mouth/throat, to have one’s heart in one’s boot, one’s heart sank/leaped into one’s boots/shoes.*

Noxush holatlar yoki vaziyatlardan so‘ng unutilish jarayoni boshlanishi mumkin, ya’ni biror narsani yoki kimnidir yo‘q qilish, unutilish – “qalbdan o‘chirmoq”, “yuragidan olib tashlamoq”, “qalbdan inkor etmoq” – “throw/cut/get out of one’s heart” istagi paydo bo‘ladi:

*Yaxshi-yomonni farqlamoq va munkar ishni qalbdan inkor etmoq har bir musulmon zimmasidagi farzi ayndir*³⁰;

*How can I get him out of my heart?*³¹

Biroq, ingliz tilida birovni unutilish, qalbidan chiqarishni ifodalashda “get out of heart”ga nisbatan ko‘proq “get out of mind” iborasi ishlatiladi: *I can’t get Tom out of mind, I just miss him too much*³².

²⁸ Mehribon ustoz: <https://ziyouz.uz/matbuot>.

²⁹ Emily Dickinson. The Heart Asks Pleasure First: <https://www.brinkerhoffpoetry.org/poems>.

³⁰ So‘zlari hikmat, hayot yo‘llari ibrat: <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view>.

³¹ Cambridge Dictionary. <https://dictionary.cambridge.org>.

³² Dictionary by Farlex. <https://www.thefreedictionary.com>.

O‘zbek tilidagi “yurak/qalb” va ingliz tilidagi “heart/soul” konsepti befarqlik, hissiyotsiz yoki qattiqqo‘llilikni ifodalashda birdan sovuqlashishi yoki qattiqlashishi va hatto toshga aylanishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida “yuragi/qalbi muz”, “qalbi sovuq”, “yuragi/qalbi qattiq”, “yuragi/qalbi tosh”, ingliz tilida “frozen heart/soul”, “cold-hearted”, “stony heart”, “stone hearted” iboralaridan tashqari, ularga sinonim ravishda “iron-hearted” (yuragi temirdan) frazeologizmlari ham ishlatiladi.

Xafagarchilik, afsuslanish hissi yurakka tinchlik bermaydi, natijada “yurak/qalb achishishi”, “yurak/qalb cho‘kishi”, “yurak/qalb kuyishi”, “yurakka sig‘maslik”, “yurakka qattiq botishi”, “yurakka tegishi” mumkin.

